

ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАР: ФИЛОЛОГИЯ ВА ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ ОМИЛЛАРИ



МАТЕРИАЛЛАР ТЎПЛАМИ

СЕНТЯБРЬ

2020

**ТОШКЕНТ
ЎЗБЕКИСТОН**

**ХАЛҚАРО
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
МАСОФАВИЙ
КОНФЕРЕНЦИЯ**

**"ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМДА РАҚАМЛИ
ТИЗИМЛАРНИ ҚЎЛЛАШ: ФИЛОЛОГИЯ ВА
ПЕДАГОГИКА СОҲАСИДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕНДЕНЦИЯЛАР ВА РИВОЖЛАНИШ
ОМИЛЛАРИ"**

**"ЦИФРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В
СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ:
СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ
РАЗВИТИЯ В ФИЛОЛОГИИ И ПЕДАГОГИКЕ"**

**"DIGITAL TECHNOLOGIES IN MODERN
EDUCATION: CURRENT TRENDS AND
DEVELOPMENT FACTORS IN PHILOLOGY AND
PEDAGOGY"**

Замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омиллари [Тошкент; 2020] 1 сентябрь 2020 йил. -Тошкент: Tadqiqot, 2020. -199б

Ушбу тўплам замонавий таълимда рақамли тизимларни қўллаш: Филология ва педагогика соҳасида замонавий тенденциялар ва ривожланиш омилларига бағишланган тезисларни қамраб олган.

УЎК 37.018.43:004(062)
DOI 10.26739/conf_09/08/2020

Ушбу тўпламнинг электрон шакли куйидаги сайтларда
<https://tadqiqot.uz/conf/>
www.conferences.uz

Таҳририят кенгаши

- 1.Абдуллаева Барно Сайфутдиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети проректори, п.ф.д., профессор
- 2.Шахобиддин Саидович Ашуров Самарқанд давлат чет тиллари институти проректори, ф.ф.н., доцент
- 3.Джурев Рисбой Хайдарович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, п.ф.д.
- 4.Асқаров Ахмадали Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети академиги, т.ф.д.
- 5.Ли Ю Ми (Жанубий Корея) Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети PhD
- 6.Лутфуллаев Махмуд Ҳасанович Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, п.ф.д.
- 7.Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 8.Насруллаева Нафиса Зафаровна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 9.Кисилев Дмитрий Анатолевич Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.д.
- 10.Сувонова Нигорабону Низамиддиновна Самарқанд давлат чет тиллари институти доценти, ф.ф.н.
- 11.Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич Самарқанд давлат чет тиллари институти профессори, фалс.ф.д.
- 12.Муслимов Нарзулла Алиханович. Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 13.Халиков Аъзам Абдусаломович педагогика Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 14.Уразова Марина Батировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.д.
- 15.Мирсолиева Мухаббат Тухтасиновна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.д.
- 16.Мамадалиев Абдумажид Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 17.Садиқова Альбина Венеровна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 18.Авазов Шериммат Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 19.Мамаражабова Зулфия Нарбасвна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети профессори, п.ф.н.
- 20.Адилова Саодат Хусановна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети доценти, п.ф.н.
- 21.Расулов Анвар Баходирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи, PhD
- 22.Абдуазимов Азиз Абдусобирович Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети бўлим бошлиғи,
- 23.Рахимова Гулсанам Аширбековна Ўзбекистон Миллий Университети Хорижий Филология факультети Табиий йуналишлар бўйича чет тиллар кафедраси мудири

Тўпламга киритилган тезислардаги таълумотларнинг ҳаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдир

©Муаллифлар жамоаси
©Tadqiqot.uz

Page Maker\Верстка\Саҳифаловчи: Шаҳрам Файзиёв

Контакт редакций журналлов: www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амир Темура пр.1, дом-2.
web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел:(+998-94) 404-00-00

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email:info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-00-00

ПЕДАГОГИКА ЙЎНАЛИШИ

1.Норбўтаев Хўшбоқ Бобоназарович БИОЛОГИЯНИ ФАНЛАРАРО ЎҚИТИШДА ЭКОЛОГИК МАЗМУНДАГИ МАСАЛАЛАРНИНГ МОЎХИЯТИ.....	8
2.Ежкова Нина Сергеевна, Платова Ольга Сергеевна ФОРМИРОВАНИЕ У ДОШКОЛЬНИКОВ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНЫХ УМЕНИЙ: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДИЧЕСКИЙ АСПЕКТ.....	12
3.Matmuratova Adolat Davlatyarovna 1-4-SINF MATEMATIKA DARSLIKLARIDA AMALIY XARAKTERDAGI MASALALARNING BERILISH SHAKLLARI VA ULARNI TURKUMLASH.....	15
4.Мясоедова Л. Е. ПРОБЛЕМА РАЗВИТИЯ НРАВСТВЕННОЙ СФЕРЫ В КОНТЕКСТЕ ЛИЧНОСТНОГО РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННЫХ ПОДРОСТКОВ.....	17
5.Sodiqova Maxfuza Yuldashevna O'QUVCHILAR SAVODXONLIGINI BAHOLASH BO'YICHA XALQARO TALABLARGA MOS "PISA" DASTURI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA.....	21
6.Abatova Feruza Reymbaevna, Seydullaev Baxadir Sag'idullaevich, Jiemuratov Maxmud Oserbaevich INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI BIOLOGIYA FANI O'QITISHGA JORIY ETISHNING AHAMIYATI.....	23
7.Abatova Gulnaz Reymbaevna SOME METHODS AND TIPS IN TEACHING MIXED ABILITY CLASSES.....	25
8.Абдужамилова Рашидахон Ибрагимжоновна ДАВЛАТ ХОКИМИЯТИ ФАОЛИЯТИНИ САМАРАДОРЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	28
9.Dalanova Yulduz Turg'unovna AL-XORAZIMIYNING O'RTA OSIYODA MATEMATIKANING RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI VA UNING ILMIY MAKTABI.....	33
10.Djumoboyeva Yanglish Egamnazarovna, Yusufjonova Navbahor, Nishonova Dilafruz BARKAMOL AVLODNING RIVOJLANISHIDA - KASBGA YO'NALTIRISH ZAMON TALABI.....	37
11.Rustamova Dilbar Bahodirovna, G'oyibnazarova Maftuna Shakar qizi, G'oyibnazarova Nazokat Shakar qizi ENERGIYA SAMARALI BINOLARNING TURLARI VA TAVSIFLARI.....	40
12.Isaqova Nodiraxon Tojidinovna BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK O'YINLARNING O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDAGI O'RNI.....	43
13.Kodirova Dildufaxon Abrorxonovna INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI BILIMINI BAHOLASHNING NOAN'ANAVIY USULI.....	45
14.Laminova Hanifa ALISHER NAVOIY IJODIDA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MASALASI.....	47
15.Назokat Бабаджанова Давронбековна "ЮСУФ ВА ЗУЛАЙХО" ҚИССАСИ СЮЖЕТИНИНГ ЎЗБЕК АДАБИЁТИДАГИ БАДИИЙ ТАЛҚИНЛАРИ.....	49
16.Shukurova Marxabo Eshonqulovna, Nomozova Elmira Qurbonovna, Ro'ziyeva Madinaxon Shuhrat qizi ZAMONAVIY TA'LIM JARAYONIDA E-LEARNING TIZIMINING TUTGAN O'RNI.....	53
17.Soatova Difuza Qobilovna XALQ HUNARMANDCHILIGI TEXNOLOGIYASI: UMUMIY TUSHUNCHALAR...56	56
18.Qalandarov Bovurjon Baxtiyor o'g'li TA'LIM SOHASIDA MODUL TIZIMINI QO'LLASHNING AFZALLIKLARI.....	58

19. Qo'chqarov Ulug'bek Lochinbekovich SPORT MASHG'ULOTLARIDA NATIJALARGA ERISHISHDA TO'G'RI QAROR QABUL QILISHNING AHAMIYATI.....	61
20. Qodirjon Sotivoldiev TALABALAR MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH.....	64
21. Yusupov Botir Ermatovich SAUDIYA ARABISTONI VA ERON ZIDDIYATI.....	67
22. Sultonova O'lmasoy Saydullayevna MATEMATIKA FANINING FANLAR ORASIDA TUTGAN O'RNI.....	70
23. Tadjiaxmedov SHermamat Mirzamatovich JISMONIY TARBIYA TA'LIMI JARAYONIDA KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH.....	72
24. Umarova Munojat Sayipddinovna MAKTAB GEOGRAFIYASINI O'QITISHNING ASOSIY XUSUSIYATLARI.....	75
25. Urinov Ziyovuddin Sodikovich, Уринов Зиёвуддин Содикович ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ АКТИВНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА С ПРИМЕНЕНИЕМ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	77
26. Yo'ldasheva Nigora G'ulomqodirovna O'QISH DARSLARIDA QO'LLANILADIGAN METOD VA USULLAR.....	80
27. Kўshmonov Aдахам Акромжонович, Жўраев Абдулахад Ашуралиевич СПОРТЧИЛАРНИ ЮҚОРИ НАТИЖАЛАРГА ЭРИШИШЛАРИДА ТРЕНЕРЛАРНИНГ TUTGAN ЎРНИ.....	83
28. Axmedov ўайратбек Қосимович, Ниязов Валижон Алиевич МИЛЛИЙ ХАЛҚ ЎЙИНЛАРИНИНГ ЁШЛАРНИ КАМОЛОТГА ЕТКАЗИШДА ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ.....	85
29. Ёқубова Севара Бахтиёрвна АБСТРАКТ СИФАТЛАР АЖРАТИЛИШИДА ҲИССИЙ ВА АҚЛИЙ БИЛИШНИНГ ЎРНИ.....	87
30. Токаева Хушрой Балкановна. МАСОФАВИЙ ЎҚИТИШ ВА МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ- ДАВР ТАЛАБИ.....	90
31. Умарова Зухра Сагдуллаевна ЖАҲОН ДИЗАЙН ТАЪЛИМИДАГИ ТАРИХИЙ ТАЖРИБАЛАРНИНГ ЎЗБЕКИСТОНДА ДИЗАЙНИ ТАЪЛИМИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДАГИ ЎРНИ.....	93
32. Низамова С. А. КИМЁ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА AR VA VR ДАСТУРИЙ ВОСИТАЛАРИНИНГ ҚўЛЛанилиши.....	97
33. Қосимова Шахноза Нуриддиновна МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ РАҲБАРЛАРИ МАЛАКАСИНИ ОШИРИШ МОДЕЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШНИНГ ПЕДАГОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ.....	101
34. Мамасолиева Дилрабо Мамировна МУҲАММАД ИБН МУСО АЛ-ХОРАЗМИЙНИНГ МАТЕМАТИКА ФАНИГА ҚўШган Ҳиссаси.....	104
35. Шакирова Нафиса Аббаровна ЁШЛАРНИ ВАТАНПАРВАРЛИК РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА МАЪНАВИЯТ АСОСЛАРИ ВА ҲУҚУҚ ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ АҲАМИЯТИ.....	108
36. Нежуринa Елена Валерьевна ИГРОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ ЛИТЕРАТУРЫ С ОТСТАЮЩИМИ УЧЕНИКАМИ.....	110
37. Нигматова Гулнора Нурханбетовна МАЛАКА ОШИРИШ ЖАРАЁНИДА МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТИ РАҲБАРЛАРИ ИҚТИСОДИЙ КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ТАЪЛИМ УСУЛЛАРИ.....	116

38.Пулатов Фозилжон Усибжанович	
МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ ИЖОДИЙ РИВОЖЛАНИШИДА ТАСВИРИЙ ФАОЛИЯТНИНГ ЎРНИ.....	119
39.Сулаймонов Фозил Ўролович, Байзаков Махмуд Баходир ўғли	
МАКТАБ МАТЕМАТИКА КУРСИДА МАНТИҚИЙ МАСАЛАЛАРНИ ЕЧИШНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ.....	122
40.Meliboyev Orif Yunusovich	
BIOLOGIYA FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARIDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARNING ANAMIYATI.....	126
41.Таджибаев Бахрам Рузиевич, Расулова Фотима Фархотовна	
ДИСТАНЦИОННОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК ОСОБАЯ ФОРМА НЕПРЕРЫВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ПАНДЕМИИ.....	129
42.С.Саидмуродова	
ПЕДАГОГЛАРДА ШАХСИЙ ВА КАСБИЙ КОМПЕТЕНТЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ - ПЕДАГОГИК ОФИШНИ КОРРЕКЦИЯЛОВЧИ ОМИЛ СИФАТИДА.....	133
43.Толибов Нодиржон Нркулович	
БЎЛҒУСИ УЧУВЧИЛАРНИНГ ТРЕНАЖ ТАЙЁРГАРЛИГИНИ АМАЛГА ОШИРИШДА КОМПЕТЕНТЛИГИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ.....	136
44.Умарова Умида Умаровна	
MOODLE МАСОФАВИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА "ДИСКРЕТ МАТЕМАТИКА ВА МАТЕМАТИК МАНТИҚ" ФАНИДАН КУРС ЯРАТИШ БЎЙИЧА ТАВСИЯЛАР.....	139
45.Боймуродова Гулчехра Маматкаримовна	
ЎҚИТУВЧИ ШАХСИННГ ПЕДАГОГИК УСЛУБИ ВА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ЎЗЛАШТИРИШ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	142
46.Юлдашев Сардорбек Адилбекович, Нигора Абдулхамид кизи, Жураев Абдулахад Ашуралиевич.	
МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ МАШҒУЛОТЛАРИ ЖАРАЁНИДА БОЛАЛАР ҲАРАКАТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УМИМИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	144

ФИЛОЛОГИЯ ЙЎНАЛИШИ

1.Kulmagambetova Svetlana S, Khaliullina Indira R.	
DEVELOPMENT OF UNTRAINED SPEECH IN ENGLISH LESSONS USING EXERCISES.....	146
2.Orel M.V.	
МЕТОДЫ И ПРИЕМЫ КОНТРОЛЯ УРОВНЯ ВЛАДЕНИЯ ИН. ЯЗЫКОМ.....	151
3.Abdullayeva Maftunabonu Bahodirovna	
ALISHER NAVOIY VA OGANIY ASARLARIDA QO'LLANILGAN AVESTOVIY EPIK NOMLAR.....	153
4.Bafoyeva Nigora Azimovna, Jo'rayev Muhabbat Amonovna	
O'ZBEK TILIDA O'ZLASHMALARNING ANAMIYATI.....	156
5.Cho'lliyeva Gulchehra Toshpo'latovna	
OHANG XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR.....	157
6.Shakhnoza Chorjeva	
RICHARD ALDINGTON AS A "LOST GENERATION" WRITER.....	162
7.Ergashova Rano Turaevna	
THE ROLE OF AVIATION TERMS IN TERMINOLOGY.....	164
8.Гулямова Шаҳноза Қахрамоновна	
ПОЛИСЕМАНТИК СЎЗЛАРНИНГ ТИЛ КОРПУСИДА БЕРИЛИШИ МАСАЛАСИ ХУСУСИДА.....	167



OHANG XUSUSIDA BA'ZI MULOHAZALAR

НЕКОТОРЫЕ КОММЕНТАРИИ ОБ ИНТОНАЦИИ

SOME COMMENTS ABOUT INTONATION

Cho'lliyeva Gulchehra Toshpo'latovna

BuxDu Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi
gchulliyeva@bk.ru

Annotatsiya. Maqolada tilshunoslikning intonologiya sohasi rivoji haqida so'z yuritilgan bo'lib, uning obyekti bo'lmish ohangning nutq jarayonidagi roli haqida ayrim mulohazalar bayon qilingan. Ma'lumki, nutq serqirra xarakterga ega bo'lib, undagi maqsadni amalga oshirishda turli nutqiy komponentlar birgalikda "harakat qiladi". Shunday vositalardan biri nutq ohangi bo'lib, u o'zida kommunikantlar haqida til birliklari bilan ifodalab bo'lmaydigan turli ma'lumotlarni saqlaydi, shuning uchun nutq ohangini to'g'ri tushunish nutq maqsadini to'g'ri anglashga olib keladi. Bundan tashqari, nutq ohangi turli til vakillari uchun o'ziga xos bo'lib, o'zbek tili nutqining ham boshqa tillardan ajralib turadigan ayrim xususiyatlari mavjud.

Kalit so'zlar: til, tilshunoslik, diskurs, nutqiy faoliyat, intonologiya, intonatsiya, ohang, kommunikant, temp, ritm, melodika, urg'u.

Tilning asosiy komponentlaridan biri bu ohangdir. Nutqiy muloqot juda murakkab qurilishga ega bo'lib, unda ohangning roli va vazifasi xilma-xil. Nutqning barcha turlari uchun ohang umumiy xarakterga ega bo'lsa-da, ammo u ifodalagan ma'nosi, akustik xususiyatlari va nutqning mantig'i bilan bog'liqligi, gapning sintaktik qurilishiga va ritmik umumlashmasiga ta'siri bilan turli tillarda farq qiladi.

Ma'lumki, til - "tizimlar tizimi" hisoblanadi. Prosodika esa tilning fonologik tizimining tarkibiy qismini tashkil qiladi. Har qanday tarkibiy qism o'zining birliklari, qonun-qoidalari va uslublariga ega. Avvalo, prosodika haqida to'xtalsak.

Keyingi paytda nutq ohangi ustida olib borilgan tadqiqotlarda "prosodika" atamasi ko'zga tashlanadi. Prosodika substansional sath o'lchovi sifatida nutqning fiziologik xususiyatlarini o'zida aks ettiradigan fonologiya birligidir. Fonetik-fonologik birliklarning lisoniy-vazifaviy xususiyatlari va tildagi vazifalari, til mexanizmidagi rolini tadqiq qiluvchi fonologiyaning tarkibiy qismlari fonema, sillobema, aktsentema va intonema deb nomlanadi. Fonologiyaning o'zi segmental va supersegmental fonologiyaga ajratiladi. Prosodika supersegmental fonologiyaning predmeti bo'lmish sillabema, aksintema va intonemaning umumlashmasi hisoblanadi [1].

Tilning asosiy komponentlaridan biri - intonatsiya (ohang) bo'lib, ifodalanayotgan nutqning ohangi o'ziga xos murakkab qurilish va turli vazifalarga egaligi bilan ajralib turadi.

"Intonatsiya" so'zi atama sifatida lotinchda "intono" - baland talaffuz qilaman degan ma'noni anglatadi [11]. Ammo atamaning etimologik ma'nosi uning vazifasini to'la ochib bera olmaydi. Intonatsiya - murakkab hodisa bo'lib, u turli qismlardan tashkil topgan. Nutqiy faoliyat nuqtayi nazaridan qaraydigan bo'lsak, intonatsiya bu jarayonda tovushning asosiy chastotasi, tezligi, davomiyligi, baland-pastligi kabilarni ifodalashi bilan xarakterlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan sifatlaridan tashqari intonolog olimlar nutq ohangining urg'u, melodika, temp va tembr kabi tarkibiy qismlariga to'xtalishadi. Keyingi tadqiqotlar



bular qatoriga pauzani ham kiritmoqda.

Nutq melodikasi - unda nutqda ishtirok etgan gaplardagi ovozning ko'tarilishi va pasayishi nazarda tutiladi. Bu jarayon gap tarkibidagi so'zlarning bo'g'inlarida qo'llangan unli tovushlarning baland yoki past talaffuz etilishiga asoslanadi. Tabiiyki, gapdagi barcha so'zlarning bo'g'inlari bir xil balandlikda talaffuz etilmaydi, ular gapning mazmun rejasiga (fikir, his-tuyg'u va hokazolarga) qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun ham darak, so'roq va buyruq gaplarning yoxud emotsional va emotsional bo'lmagan gaplarning intonatsiyalari bir xil emas.

Nutq ritmi - urg'uli va urg'usiz, cho'ziq va qisqa bo'g'inlarning qo'llanishida vazndoshlik, ohangdoshlikning mavjud bo'lishi. Nutq ritmining badiiy yoki ifodali o'qishda, shuningdek, she'riy misralardagi qofiyadoshlik, ohangdoshlikni ta'minlashda ahamiyati katta: band ritmi, alliteratsiya ritmi, anafora, emfaza kabilar nutq ritmini ta'minlovchi muhim vositalar sanaladi.

Temp - sur'at, daraja, tezlik. Bunday tezlik gap tarkibidagi tovushlar talaffuziga sarflangan vaqt bilan belgilanadi. Bunday vaqt gap bo'laklari, ularning o'rni, gapning turi, gap aytilayotgan vaziyat kabi omillar ta'sirida har xil bo'ladi. Masalan, darak gaplarda gap boshida kelgan ega talaffuzida temp sekinroq bo'ladi, bu temp kesim zanjirida tezlashadi. Agarda ega logik urg'u olsa, uning talaffuzidagi temp kuchayadi.

So'roq gapda eganing talaffuzidagi tezlik darak gapdagi eganikidan biroz ortiq bo'ladi, kesim talaffuzidagi tezlik esa nisbatan kamayadi. Buyruq gaplarda temp gap oxiriga tomon tezlashib boradi, ammo oxirgi so'z talaffuzidagi tezlik keskin pasayadi.

Nutq intensivligi - talaffuzning kuchli va kuchsiz bo'lishi. Nutq intensivligi, odatda, nafas chiqarishning kuchayishi yoki kuchsizlanishiga asoslanadi. Masalan, xonadagi nutq ochiq maydondagi nutq intensivligidan kuchsizroq bo'ladi.

Nutq tembri - tovushning bo'yoqdorligi. Bunday buyoqdorlik asosiy ton va qo'shimcha tonlar nisbatidan kelib chiqib, nutqning ta'sirli, quvnoq, o'ynoqi yoki, aksincha, ma'yus, g'amgin bo'lishini ta'minlaydi[6].

Intonatsiya atamasi turli sohalarida ma'lum bir vazifani bajarib keluvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Masalan, san'atning barcha sohalarida, tibbiyotning defektologiya va shu kabi shaxs nutqi bilan bog'liq sohalarida ishlatiladi.

Tovushning baland yoki past ohangi bilan belgilanadigan gapirish manerasi, so'zning talaffuz etilish xarakteri intonatsiyadir. Intonatsiya so'zlovchining o'zgalarga qanday muomala qilayotgani, suhbatdoshiga nisbatan munosabatini aks ettiradi. [9]

Musiqachilar qadimdan kuy ohangini yozma shaklga solishga harakat qilishgan. Ilk bor bu ishga urinish xitoylik musiqachi olimlarda uchraydi. Ular III-VII asrlardayoq xitoy musiqasiga xos bo'lgan beshta musiqa notalari ohangini aks ettirishga muvaffaq bo'lishadi. Qadimgi Gretsiya, qadimgi Misr va Mesopotamiyada ham musiqa ohangining yozma shakllarini topishga urinishlar bo'lgan. Ular musiqa ohangining baland-pastligi va ritmini yozma shaklda aynan aks ettirish ustida izlanish olib borishgan [4].

Tilshinoslikda intonatsiya fonetikaning tarkibiy qismi sifatida tadqiq qilingan va uning mustaqil soha sifatida fanga kirib kelganiga hali uzoq vaqt bo'lgan emas. XX asrning o'rtalarida intonatsiya fikrning ohangi, ya'ni so'roq, darak, buyruq va h.k. kabilar bilan bog'lanib tahlil qilindi. Intonatsiya borasidagi tadqiqotlarda XX asrning 40-50-yillarida asosiy e'tibor sintaktik birliklarning ohangiga qaratilgan bo'lsa, 60-yillarda uning asosiy birliklari ustida izlanishlar amalga oshirildi, 70-80-yillarda esa matnning fonostilistik jihatidan tahliliga qaratildi.[10]

Intonatsiyaning nutq jarayonidagi roli maxsus monografiya tarzida tilshunos olim I.A.Kanter tomonidan o'rganilgan. Olimning "Системный анализ речевой интонации" monografiyasi nutqiy intonatsiyaning fonostilistik tahliliga bag'ishlangan. Nutq ohangi rus olimlaridan V.A.Artyomov, I.A.Stezorova, M.A.Burak, E.Benvinist kabi bir qator



tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan.

Bugungi tilshunoslikda nutq ohangi nutqiy vaziyat jihatidan tahlil qilinmoqda. Shu ma'noda T.N.Gasanovning ma'lumot berishicha, lahon tilshunosligida nutq ohangi borasidagi ilk izlanishlar XVI asrning ikkinchi yarmi, ya'ni aniqrog'i, 1551-yilda boshlangan bo'lib, ingliz olimi Djon Xart ingliz tili nutqi ohangini tadqiq qilgan. Aynan ana shu asar jahon tilshunosligida intonologiyani fonetikadan ajratib, alohida soha sifatida o'rganishga ilk qadam - poydevor bo'lib xizmat qildi. XIX asr oxirlariga kelib esa olimlar nutq ohangini kommunikantlarning individual xususiyatlarini, ular haqida jismoniy, ruhiy, psixologik kabi turli ma'lumotlarni ham aks ettira oladigan vosita sifatida tahlil qilishni boshlashdi. 1960-yillarda olimlar tomonidan ko'proq nutq ohangining emotsional vazifasi o'rganildi. Shu asr oxiriga kelib esa turli tillar nutqi ohangining o'ziga xosliklari, xususan, ingliz tilining Angliya nutqi ohangidan Amerika nutqi ohangining farqi tadqiq qilindi. D.Shivnani esa ingliz nutqi ohangining hindcha ko'rinishini o'rgandi va o'z xulosalarini ilmiy ishida nashr qildi.

XX asr yakunlarida intonologiya borasidagi izlanishlar yangicha tus ola boshladi. D. Kristal, D. Breyzil kabi olimlar nutq ohangini real vaziyat va real vaqt nuqtayi nazaridan tahlil qilishga o'tishdi. Ular kitobiy va real - hayotiy nutqni farqlash kerakligini ta'kidlashgan. [4]

O'zbek tilshunoslikda intonatsiya fonetika sathining tarkibiy qismi, nutqning unsuri sifatida qarab kelingan va nutqiy jarayonda til birliklarini birlashtiruvchi, uyushtiruvchi; gapning darak, so'roq yoki buyruq mazmunini belgilab beruvchi; gapning davomiyligi yoki tugaganligi kabi ma'nolarni ifodalovchi vosita sifatida tadqiq qilingan. Bugungi kunda esa til unsurlarini real nutqiy jarayon nuqtayi nazaridan, ya'ni pragmalingsvistik aspektda tahlil qilish natijasida intonatsiyaga ham nafaqat ma'lum bir grammatik mazmunni beruvchi vosita, balki nutqiy vaziyatda suhbatga kirishuvchi kommunikantlarning emotsional, ruhiy, psixologik holati kabi xususiyatlari haqida ham ma'lumot beruvchi noverbal vosita sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari jahon tilshunosligida har bir tilning milliy xususiyatlaridan kelib chiqib, nutqiy jarayoniga bog'liq bo'lgan o'ziga xos intonatsiyasi o'rganilmoqda. Masalan, shu paytgacha ozarbayjon tili intonatsiyasi, turk tili intonatsiyasi, qozoq tili intonatsiyasi, rus tili intonatsiyasi kabi bir qancha izlanishlar amalga oshirilgan. Ammo o'zbek tili intonatsiyasining o'ziga xosliklari hali tadqiq qilinmagan.

O'zbek tilshunosligida intonatsiya borasida ko'plab tadqiqotlarda to'xtalib o'tilgan. Taniqli tilshunoslar M.Mirtojyev intonatsiyaning umumiy xususiyatlari haqida, E.Qilichev intonatsiyaning stilistik imkoniyatlari, A.Haydarov esa intonatsiyaning badiiy nutqdagi uslubiy xususiyatlari haqida fikr-mulohazalarini bildirib o'tadilar.

Tilimizdagi bu borada olib borilgan izlanishlarning eng mukammali ustoz olim Ergash Qilichevning "O'zbek tilining praktik stilistikasi" kitobida talaffuz va intonatsiyaning stilistik xususiyatlari, vazifasi va uning tarkibiy qismlari haqida to'xtalib, misollar vositasida ochib berilgan. Bundan tashqari poetik nutq intonatsiyasining o'ziga xosliklari turli dissertatsiyalar va monografiyalarning tadqiq mavzusiga aylangan.

Tilshunosligimizdagi hech bir til birligi yo'qki intonatsiyaga bog'liq bo'lmasa. Ammo shu paytgacha o'zbek tili nutqi ohangining o'ziga xosliklari alohida o'rganilmagan. Tadqiqotimiz shu nuqtayi nazardan ahamiyatli deb o'ylaymiz.

Hasanboy Jamolxonov "Intonatsiya og'zaki nutqning majburiy fonetik komponentidir, usiz gap yoki nutq shakllanmaydi va ifodalanmaydi", deb ta'kidlagan edi [9].

Nutq so'zlashuvchilarning psixologiya, ayni paytdagi kayfiyati yoki yoshi, lavozimi, urf-odatlari, tarbiyasi kabi ko'plab omillarning ta'siri bilan yaratiladi. Bu jarayonda suhbatdosh nutqining ohangini intonologiya sohasi yordamchi bir vosita sifatida baholaydi.

So'zlashuvchilarning his-tuyg'usini ifodalashda til birliklari bilan birgalikda turli xil



jest va mimikalar noverbal til vositasi sifatida qo'llaniladi. Kommunikantlar maqsadi, ya'ni insonning suhbatida vaqtidagi jismoniy va ruhiy holati nafaqat bu vositalar orqali, balki suhbatdosh nutqining ohangi, uning akustik o'ziga xosligi bilan ham namoyon bo'ladi. Masalan, ohang nutq mavzusi o'zgartirilgani, tugagani yoki mavzuga suhbatdoshning e'tirozi, roziligi kabi xususiyatlari, savol mazmunining darak mazmunidan farqi kabi ko'plab tushunchalarni o'zida aks ettira oladi.

Bilamizki, bugungi texnika rivoji jadallashgan asrda insonlarning uzog'ini yaqin qiluvchi ijtimoiy tarmoqlar orqali aloqa jarayoni amalda. Bu jarayonlarda suhbatdoshning nutqidan maqsadini to'la tushunib yetish uchun yoki yuborilgan xabarni qanday ohangda o'qishni bildirish uchun smayl (ing. smil - kulgi)lardan foydalanishadi. Rus tadqiqotchisi M.A. Burak "Реализация интонации в дискурсе" maqolasi[3]da aynan ana shu vositalar haqida gapirib, ular tilning imkoniyati "sms" xabarda cheklanganligi uchun yaratilganligiga urg'u beradi.

Haqiqatdan, zamonaviy insonlar vaqtni tejash maqsadida texnikaning imkoniyatidan unumli foydalanib, xabarni tez yetkazishni ko'zlab, smayllarning yolg'iz o'zini suhbatdosh hissiyoti yo kayfiyati haqida ma'lumot berish uchun jo'natishadi. Shu bittagina belgi suhbatdoshga xabar jo'natuvchi haqida ko'plab, ayni paytda til birliklari yetkaza olmaydigan ma'lumotlarni taqdim qilishi mumkin. Aynan shular ifodalay olgan ma'lumotlarni harf yoki so'z bilan ifodalaganda suhbatdoshning holati - nima demoqchiligi yoki reaksiyasi chiqmasligi tayin. Bundan ko'rinib turadiki, alifbodagi harflar va tilimizdagi so'zlar bazasi yozma nutq maqsadini to'la aks ettirmas ekan. Og'zaki nutqda esa til birliklari orqali ifodalay olmagan ayrim tuyg'u va hissiyotlar nutq ohangidan anglashiladi. Bu yana nutq intonatsiyasi vazifasining naqadar muhimligini ko'rsatadi.

"Har qanday nutq harakatdir, bu harakat esa, albatta, ma'lum intonatsiya bilan qo'shilib, qorishib yuzaga keladi: nutqning toni, sur'ati, pauzalari, tonning balandligi va kuchi gapning mazmuni va emotsionalligi talabidan kelib chiqqan holda o'zgarib, tovlanib turadi..." [6]. Demak, harf va so'zlar ohang yordamida to'laroq ma'noni ifodalash xususiyatiga ega bo'lar ekan.

Nutq ohangning turlichaligi bilan xarakterlanadi. Ohang nafaqat so'zlovchining xarakteri yoki ayni vaziyatdagi ruhiyatini ifodalab qolmay, u har bir xalq vakilining milliy o'ziga xosligini ham aks ettiradi. Chunki har xil mentalitet a'zolari turlicha ohangdan foydalanadilar. Qanday nutqda bo'lmasin ohang aloqa vositasi, his-tuyg'u ifodachisi yoki nutqni shakllantiruvchi bo'lak sifatida namoyon bo'ladi. So'zlovchi nutqi ohangini to'g'ri tahlil qila olish nutq maqsadini to'g'ri tushunishning kaliti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abduzuhur Abduazizov. Tilshunoslikka kirish. - T.: "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2010. 178 bet, 22-bet.
2. Arutunova N.D. Предложение и его смысл. - М.: "Librokom", 2013.
3. Burak. M.A. Реализация интонации в дискурсе. - Kursk davlat universiteti. 2010, 14-b.
4. Gasanova T.N. Краткая история развития и формирования интонологии // Молодой ученый. - 2012. - №9. - С. 182-185.
5. Haydarov A. Intonatsiyaning uslubiy xususiyatlari. BuxDu ilmiy axborotnomasi. 2006, 69-72-b.
6. Jamolxonov H. O'zbek tilining nazariy fanetikasi. - T.: "Fan", 2009. 224 b.
7. Kanter L.A. Системный анализ речевой интонации. - М.: 1978, 92-114-b.
8. Mirtojiev M. Tovushlardagi ma'no. - T.: "O'zbekiston", 1982, 24-b.
9. Қиличев Э. Ўзбек тилининг практик стилистикаси. Т.: "Ўқитувчи", 1985. 104 б.
10. Торсуева И. Г., Интонация и смысл высказывания. - М., 1979.



11.О'zME. Birinchi jild. - T: 2000-yil.